

Ruziyeva Gulsara Temirqulovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Tabiiy fanlar” kafedrası PhD,v.b.dotsent

E-mail: Ruziyeva.gulsara@gmail.com

gulsara_ruziyeva@tues.uz

<https://orcid.org/0009-0009-2634-063X>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973721>

Annatotsiya. Ushbu maqolada talabalarda ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirish jarayonida talabaning tutgan o‘rni va mas’uliyati har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologiya sohasida davlatlar tajribasini solishtirish orqali talabalarda ekologik tafakkurni rivojlantirishning samarali yo‘llari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, talaba, ekologik madaniyat, davlatlar tajribasi, Yaponiya, O‘zbekiston, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ta’lim tizimi.

Annatotsiya. В данной статье всесторонне анализируется роль и ответственность студента в процессе формирования экологического образования. В исследовании освещаются эффективные способы развития экологического мышления у студентов на основе сравнения опыта разных стран в области экологии.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое воспитание, студент, экологическая культура, опыт стран, Япония, Узбекистан, окружающая среда, устойчивое развитие, экологическая осведомленность, система образования.

Annattosia. This article comprehensively analyzes the role and responsibility of the student in the process of forming environmental education in students. The study highlights effective ways to develop environmental thinking in students by comparing the experience of countries in the field of ecology.

Keywords: environmental education, environmental upbringing, student, environmental culture, experience of countries, Japan, Uzbekistan, environment, sustainable development, environmental awareness, education system.

KIRISH. Bugungi kunda O‘zbekistonda ekologik muammolar global miqyosda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noo‘rin foydalanish, iqlim o‘zgarishi kabi jarayonlar insoniyat hayoti va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ekologik muammolarning oldini olish va ularni kamaytirishda nafaqat davlat siyosati, balki har bir shaxsning ekologik ongi va mas’uliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodni ekologik ruhda tarbiyalash, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirish jarayonida talabaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Talaba nafaqat bilim oluvchi, balki ekologik g‘oyalarni jamiyatga targ‘ib qiluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida beriladigan ekologik bilimlar, tarbiyaviy tadbirlar va amaliy mashg‘ulotlar talabalar ongida ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va qiyoslash ekologik ta’limni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur mavzuda Yaponiya va O‘zbekistonning ekologiya sohasidagi yondashuvlarini solishtirish, tarbiya va ekologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berish orqali talabaning ekologik ta’lim-tarbiyadagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili jarayonida pedagogika, ekologiya, ijtimoiy fanlar va ta’lim metodikasi yo‘nalishidagi ilmiy ishlar, monografiyalar, darsliklar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi. Xususan, ekologik ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari, ekologik madaniyat tushunchasi, yoshlar va talabalar ongida ekologik mas’uliyatni shakllantirish muammolari bo‘yicha tadqiqotlar muhim manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar mazkur mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qildi. Asosiy metod sifatida tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali ekologik ta’lim-tarbiyaga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida Yaponiya va O‘zbekistonning ekologik ta’lim hamda tarbiya sohasidagi yondashuvlari solishtirildi. Bu metod davlatlar tajribasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Natijalar: Tadqiqot natijalari ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirishda talabani o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatdi. O‘rganilgan adabiyotlar, qiyosiy tahlillar va nazariy xulosalar asosida shuni aytish mumkinki, ekologik muammolarni hal etishda faqat davlat siyosati yoki texnologik choralar yetarli emas, balki ekologik ong, mas’uliyatli va faol shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda talaba ekologik bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt bo‘lish bilan birga, jamiyatda ekologik madaniyatni targ‘ib qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Yaponiya va O‘zbekiston tajribalarini solishtirish natijasida ekologik ta’limga yondashuvlarda muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Yaponiyada ekologik tarbiya uzluksiz va tizimli tarzda olib borilib, talabalarda tabiatga hurmat, intizom va mas’uliyat kundalik hayot me’yoriga aylangan. O‘zbekistonda esa ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirish uchun zarur huquqiy va tashkiliy asoslar mavjud bo‘lsa-da, talabalarining amaliy faolligini oshirish, ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa ekologik ta’lim jarayonida talabani faolligini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari tarbiya va ekologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham tasdiqladi. Ekologik bilimlar tarbiyaviy mazmun bilan uyg‘unlashgandagina talabada barqaror ekologik qarashlar shakllanadi. Agar ekologiya faqat fan sifatida o‘qitilib, tarbiyaviy jihatlari yetarli darajada yoritilmasa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya unsurlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Talabalarining ekologik aksiyalarda ishtirok etish foizi ham muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Yaponiyada talabalarining 78 foizi ekologik tadbirlarda muntazam qatnashishi ekologik madaniyatning barqaror shakllanganidan dalolat beradi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 36 foizni tashkil etib, ekologik targ‘ibot va tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Ekologik savodxonlik darajasi bo‘yicha ham sezilarli farq mavjud bo‘lib, bu ta’lim-tarbiya jarayonining natijaviyligini aks ettiradi. Talabalar tomonidan ekilgan daraxtlar soni ekologik tarbiyaning amaliy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Yaponiyada minglab talabalar ishtirokida yuz minglab daraxtlar ekilishi ekologik ongning real harakatga aylanganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA. Tadqiqot davomida Yaponiya va O‘zbekiston tajribalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ekologik ta’lim samaradorligi asosan uning tizimliliigi va uzluksizligi bilan belgilanadi. Yaponiyada ekologik tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha izchil olib borilishi natijasida talabalar ekologik mas’uliyatni shaxsiy hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qiladilar. Bu holat muhokama jarayonida ekologik tarbiya faqat ma’lum bir fan doirasida emas, balki umumiy tarbiyaviy muhit orqali shakllanishi lozimligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa ekologik ta’lim bo‘yicha muayyan yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliyot bilan yanada mustahkamlash zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur muhokamada yana bir muhim jihat sifatida talabani ijtimoiy faolligi masalasi ilgari surildi. Ekologik aksiyalar, ko‘ngilli loyihalar va targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etish talabani ekologik dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, uni jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglashga ham undaydi.

XULOSA. Tadqiqot davomida Yaponiya va O‘zbekiston tajribalarini solishtirish muhim ilmiy natijalar berdi. Yaponiyada ekologik tarbiya tizimli va uzluksiz olib boriladi, talabalarda ekologik mas’uliyat va tabiatga hurmat kundalik hayot me’yoriga aylanadi. Shu bilan birga, ekologik aksiyalar va loyihalardagi talabalar faolligi yuqori bo‘lib, bu ularning amaliy ekologik madaniyatini mustahkamlaydi. O‘zbekistonda esa ekologik ta’limning nazariy bazasi mavjud bo‘lsa-da, amaliy faoliyatdagi talabalarining ishtiroki hali yetarli darajada emas. Bu holat ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun talabalarni amaliy loyihalarda faol jalb etish zaruratini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ziyaeva Mavlyuda Abdullaevna. Environmental Culture and Education of Youth in Uzbekistan. International Journal of Medical Sciences, 2025, No.2. 125–126 betlar.
2. Mamayusupova Lola. O‘zbekiston ekologik ta’limining holati va istiqbollari. International Scientific Research Conference, 2025. 10–15 betlar.
3. Abdullayeva Umidaxon. Ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongni shakllantirish. Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnal, 2025. 7–12-betlar.
4. Mammadova Aida. Integrating Japanese Local Government and Communities into the Educational Curriculum on Regional Sustainability Inside the UNESCO’s Biosphere Reserves and Geoparks. Sustainability, 2021, 13(5): 2497. DOI:10.3390/su13052497. 49–52 betlar. <https://doi.org/10.3390/su13052497>.